



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxkarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliv kengashi huzuridagi Sudyalar oliv maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning
dolzARB muammolari**” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga
olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i>	
FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i>	
SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i>	
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Сойиб Раупов</i>	
KAMBAFAALLIK VA UNI ҚИСҚАРТИРИШ MUAMMOLARI	33-42
<i>Abdimo'minov Oybek Bektemirovich</i>	
MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i>	
ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i>	
SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i>	
KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромовиҷ</i>	
ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжсаниязов Элбек Сардорович</i>	
ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i>	
O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i>	
QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Abdurahmanov Muxtora</i> ХУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKİSTONDA INNOVATSIYALARНИ RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPSION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Гайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ФОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> МАHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQZ-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i>	
O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIKA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdukarimovna</i>	
BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i>	
IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i>	
MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i>	
СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i>	
БУРХОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i>	
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA "КО'К" SIFAT BELGISINING SEMANTIK XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i>	
HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям</i>	
ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i>	
XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLLILI	264-268
<i>Davronov Shekroz Abrorovich</i>	
OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i>	
NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i>	
К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i>	
O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKAR	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'lqin qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i>	
INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Tухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i>	
ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i>	
XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i>	
YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i>	
LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i>	
O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'lqin o'g'li</i>	
INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Аманазарова Шохида Бахрамовна</i>	
РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliquovna</i>	
ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i>	
SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i>	
RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i>	
ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i>	
ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Komuna Xursanovna</i>	
O'ZBEKİSTON İJTİMOİY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQİDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoira Shukurillayevna</i>	
ONA TİLİ DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLİL QILISH METODİKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Imomov Nurillo Fayzullayevich</i> ТА’MINLOVCHI TO’LOV – MAJBURIYATLARNI TA’MINLASHNING YANGI USULI SIFATIDA	407-414
<i>Салаев Нодирбек Сапарбаевич</i> ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	415-431
<i>Ходжиев Юнус Мухитдинович</i> МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНинг ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ	432-436
<i>Сайдивалиева Хуршида</i> БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЎЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ	437-445
<i>Miqutov Bobur</i> THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	446-451
<i>Raimova Nargiza Doroyevna, To’uchiyeva Bahora Otabekovna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	452-459
<i>Чориева Хуршидабону Хуррам қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	460-468
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARIGA BO’LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI	469-478
<i>Kubaeva Ismigul Farxod qizi</i> CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE	479-484
<i>Юсупов Ўқтамбай Абсаматович</i> ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	485-491
<i>Баходирова Сабина Улугбек кизи</i> РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ	492-503
<i>Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	504-508
<i>Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o’g’li</i> O’ZBEKİSTONDA MOLİYAVİY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI	509-520
<i>To’uchiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	521-528

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urumbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛарни ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	546-550
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> MATEMATIKA FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	591-595
<i>To'xtayev Hasan Tosho'lalovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLAHTIRISH	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSILOGIK TAHLIL)	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	620-626

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i>	
МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМГА XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH BO'YICHA MAVJUD TA'LIM TALABLARINING TASNIFI YUZASIDAN TAHLILLAR	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i>	
О'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i>	
JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i>	
ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i>	
МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i>	
ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i>	
РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i>	
TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i>	
МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	673-678

Received: 30 November 2024

Accepted: 5 December 2024

Published: 15 December 2024

Article / Original Paper

MAHMUD AZ-ZAMAKHSHARI ON INTELLIGENCE AND WISDOM

Aytbayev Mansurbek Yusupovich,

International School of Finance Technology and Science

Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor

E-mail: mansurbekaytboyev020@gmail.com

Abstract. This article examines Mahmud az-Zamakhshari's reflections on reason and intellect, based on the interpretation of verses concerning reason in his tafsir "Al-Kashshaf" and the logical arguments found in his work "Subtle Expressions". Furthermore, the article elaborates on Zamakhshari's key perspectives on the concept of reason, including the nature and functional roles of consciousness, as well as the role of reason as evidence in the pursuit of truth.

Keywords: rationalism, reason, cognition, thought, "Al-Kashshaf", Allah, universe, evidence, guidance, encouragement, behavior, "Subtle Expressions", truth.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA

Aytbayev Mansurbek Yusupovich

"International school of finance technology and science" instituti

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning aql-zakovat haqidagi mulohazalari uning "Al-Kashshof" tafsirida aqlga oid oyatlarning izohlanishi hamda "Nozik iboralar" asaridagi mantiqiy dalillariga asoslangan holda tahlil etilgan. Shuningdek, Zamaxshariyning aql tushunchasiga bo'lgan munosabatidagi asosiy masalalar ongning tabiatи va funksional vazifalari hamda aqlning haqiqatni topishda dalil sifatidagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ratsionalizm, aql, anglash, tafakkur, "al-Kashshof", Alloh, koinot, dalil, iroz, tashviq, xulq-atvor, "Nozik iboralar", haqiqat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N26>

Jahondagi barcha madaniyat va sivilizatsiyalarning asosiy kognitiv tizimlari ularning borliq (ontologiya) va bilim (gnoseologiya) haqidagi tushunchalariga asoslanadi. Musulmon madaniyatidagi borliq va bilim haqidagi tahlillarni esa, asosan, kalom ilmi bo'yicha asarlar yozgan islam mutafakkirlarining ishlarida ko'rish mumkin. Ana shu toifaga mansub islam mutafakkirlaridan biri Mahmud az-Zamaxshariy o'ziga xos asarlar muallifi, islamiy g'oyalarning mohiyatini ochib berishga harakat qilgan olim, shu bilan bir qatorda, aql va naql o'rtasidagi munosabatlarni tahlilga tortgan dastlabki mutafakkirlardan biridir. Zamaxshariyning musulmon madaniyatida aql, bilim va borliq tushunchalarining o'rnini qanday tushuntirgani, uning qarashlaridagi ratsionalizmning hozirgi kundagi ahamiyatini tahlil qilishning dolzarbligini belgilaydi.

Zamaxshariyning aql haqidagi fikrlari mutaziliya ta'limotiga asoslanganligi bilan ajralib turadi, hamda bugungi kunda shaxs va jamiyat rivojlanishida faol rol o'ynashi bilan ahamiyatga egadir. Aql so'zining lug'aviy ma'nolari "nazorat qilish" va "anglash" kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi, shu sababli aql tushunchasiga qaratilgan tadqiqotlarda aynan mana shu ma'nolarga asoslangan ta'riflar ko'proq uchraydi. Islom madaniyati nuqtai-nazaridan salafiylik, shialik, tarmoqlarining har birida aql tushunchasiga ta'riflar turlichcha bo'lib, ularning o'z tamoyillariga asoslanadi.

Zamaxshariyning qarashlariga ko'ra esa, aqlga nisbat berilgan haqiqat xudo haqidagi bilimni (ma'rifat), axloqiy burchni anglash va diniy mas'uliyatni bildiradi. Aql faqat odamlarga xos tug'ma qobiliyat bo'lib, u bilan inson bilim olish, anglash va tushunish qudratiga ega bo'ladi. Inson o'z aqli tufayli g'oyibni (ko'z bilan ko'rish, qo'l bilan ushslash imkonsiz bo'lgan narsalarni) bilvosita, guvohni (ko'z bilan ko'rish, qo'l bilan ushslash mumkin narsalarni) esa bevosita bilishi, anglashi mumkin bo'ladi. Zamaxshariy tafakkur uchun aqlning ahamiyati va uning ma'no doirasi haqida ko'p ma'lumotlar keltirgani sir emas, ammo mutafakkirning aqlning diniy nuqtai nazaridan o'rni va chegarasi qanday ekanligi haqidagi qarashlarini tahlil qilish uchun, uning aqlga urg'u berilgan oyatlarni qanday talqin qilganligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Aqlning eng katta ne'mat ekanligi. Zamaxshariy aql haqidagi oyatlarni tafsir qilar ekan, aqlning vazifasi va funksiyalarini tahlil qilishda uning turli xususiyatlari e'tibor qaratadi. Birinchi navbatda, aqlning Alloh tomonidan berilgan eng katta ne'mat ekanligi g'oyasini ilgari surgan mutafakkir, o'z muxoliflarining aqlni Allohning borligi va birligini isbotlovchi vosita degan qarashlariga keskin qarshi chiqadi. Zamaxshariy aqlning insonga xos ne'mat ekanligi qayd etilgan oyatlarni o'zining "Al-Kashshof" tafsirida izohlab bergen. Jumladan, Anfol surasining 22-oyatida[1; 179-b]:

إِنَّ شَرَّ الدُّوَابَّ عِنْدَ اللَّهِ الصُّمُمُ الْبُكُمُ الَّذِينَ لَا يَعْقُلُونَ {22}

Izohi: "Shubhasizki, Allohga ko'ra tirik mavjudotlarning yomoni – aqlini ishlatmaydigan kar va soqovlardir".

Zamaxshariy mazkur oyatda berilgan aqlini ishlatmaydigan "kar va soqov" nisbatining insonlarga xos bo'lgan jismoniy qusur emas, balki eshitish va tushunish qobiliyati, ongi past, haqqa quloq solmaydigan, haq ko'rsatgan amallarga rioya qilmaydigan, haq chizgan yo'lni ko'rmaydigan, haqqa moyil bo'lmaydigan insonlarga, ya'ni ko'zi, qulog'i sog' bo'la turib, haqni ko'rmaydigan kimsalarga nisbatan qo'llanganligini isbotlab beradi.

Allohning iyomon keltirgan mo'minlarga bergen ahdining dalili, ularning qalbiga joylagan aql (hikmat) va ularga nozil qilgan vahiy (xabar) marhamatidir. Zamaxshariyning izohlashiga ko'ra: "Agar insonlar tabiatan o'z fitratlarida mavjud bo'lgan aql-zakovatga va ularga berilgan xabarga, ko'rsatmalarga muvofiq ish tutsalar, ular haqiqatdan og'ishmaydi" [2; 5/185-b]. Bu fikrlariga dalil sifatida Zumar surasining 9-oyatini keltiradi:

أَمَّنْ هُوَ قَاتِلُ آنَاءِ اللَّيْلِ سَاجِدًا وَقَائِمًا يَحْذَرُ الْآخِرَةَ وَيَرْجُو رَحْمَةَ رَبِّهِ قُلْ هُنْ لَا يَسْتَوِي الَّذِينَ يَعْلَمُونَ وَالَّذِينَ لَا يَعْلَمُونَ إِنَّمَا يَتَذَكَّرُ أُولُوا الْأَلْبَابِ {9}

Izohi: "Yoki, oxirat (azobidan) hazar qilgan va yaratgan Egasining yaxshilagini (jannatini) umid qilgan holda tungi vaqtarda sajdada va tik turib ibodat qilgan kishi (kofirlik qilgan kishi

bilan teng bo'ladimi)? “**Biladiganlar bilan bilmaydiganlar** teng bo'ladimi?!” - de. **Aql-u vijdoni sof kishilarga nasihat oladi”**[1; 459-b.]

Zamaxshariy yuqoridagi o'rinda aqli kishilarni o'z bilganlariga amal qiluvchilar deb ta'riflagan va ilmiga amal qilmaganlarni olim hisoblanmasligini ta'kidlagan [2; 5/293-b]. Chunki, ikkinchi toifaga mansub kishilar boshqalarda yo'q ilmga ega bo'lsalar-da, dunyo ishlariga berilib, Alloh taolo oldidagi burchlarini ado etmagan bo'ladilar. Bunday kishilar ilmga ega bo'lsalar ham, Alloh taolo nazdida johil hisoblanib, olimlarga tenglashtirilmaydilar. Xuddi biladigan kishi bilan bilmaydigan kishilar bir xil bo'limgani kabi chin iymon keltirganlar bilan gunohkorlarning darajasi ham bir xil emas. Zamaxshariy yuqoridagi oyatlarni tafsir qilar ekan, tafakkur qilish, ya'ni aql yuritish, o'ylash, aqldan foydalanishning va aqlga asoslanib qilinadigan ishlarni bajarishning o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini isbotlagan. Shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki, aqldan tushunchasi sof tafakkurning o'zi emas, balki uning xulq-atvor sifatida faol ishlatilishini ham qamrab oladi.

2. Aql fikrlash va ibrat olish vositasi ekanligi. Qur'onda koinot va insonlarni o'rab turgan tabiat qonunlari haqida fikr yuritish va ulardan ibrat olish g'oyasi ilgari surilgan ko'plab oyatlar borligi ma'lum. Jumladan, Baqara surasining 164-oyatida (Baqara 2/164):

إِنَّ فِي خُلُقِ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ وَاحْتِلَافِ اللَّيْلِ وَالنَّهَارِ وَالْفَلَكِ الَّتِي تَجْرِي فِي الْبَحْرِ بِمَا يَقْعُدُ النَّاسُ وَمَا أُنْزِلَ اللَّهُ مِنَ السَّمَاءِ مِنْ مَاءٍ فَأَهْيَا بِهِ الْأَرْضَ بَعْدَ مَوْتِهَا وَبَثَّ فِيهَا مِنْ كُلِّ دَابَّةٍ وَتَصْرِيفِ الرِّياحِ وَالسَّحَابِ الْمُسَخَّرِ بَيْنَ السَّمَاءِ وَالْأَرْضِ لَآيَاتٍ لِفَوْمٍ يَغْفُلُونَ

Izohi: “Osmonlar va yerning yaratilishida, kecha va kunduzni navbatma-navbat almashib turishida, insonlarning manfaati uchun dengizda suzadigan kemalarda, Alloh osmondan yog'dirib, keyin u bilan harakatdan to'xtagan yerga hayot bergan yomg'irda va har qanday harakatlanuvchi jonivorni yerga tarqatib qo'yishida, shamollarni farqli esishida va osmon-uber o'rtasidagi vazifa yuklatilgan bulutlarda – **aqlini ishlatadigan kishilar uchun** (yaratgan Allohnинг borligi va birligi haqida) ilohiy dalillar bor” [1; 25-b.] deyiladi.

Shuningdek, Oli Imron surasining 190-oyatida (Oli Imron 3/190):

الَّذِينَ يَذْكُرُونَ اللَّهَ قِيَامًا وَقَعْدًا وَعَلَى جُنُوبِهِمْ وَيَتَفَكَّرُونَ فِي خُلُقِ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ رَبُّنَا مَا خَلَقَ هَذَا بِاطِلًا سُبْحَانَكَ فَقِنَا عَذَابَ النَّارِ

Izohi: “Albatta, Osmonlar va yerni yaratilishida, kecha va kunduzni orqama-orqa almashib turishida, **aql-u vijdoni sof kishilar uchun** (yaratuvchi Allohnı borligi haqida) alomatlar bor”[1; 75-b.] deya qayd etilgan.

Zamaxshariy oyatlarda zikr qilingan “aqlini ishlatadigan kishilar” va “aql-u vijdoni sof kishilar”ni, ya'ni “istidlol ahlini” Allohnинг borligiga, qudrati ulug'ligiga va hikmatining ravshanligiga osonlik bilan yetib borishlarini aytadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqadiki, Zamaxshariy fikricha, aqlning vazifalari orasida uni o'rab turgan olam haqida fikr yuritish va ibrat olib haqiqatga erishish alohida o'rin tutadi. Chunki insonning o'zi uchun qiladigan eng yaxshi amali aqli tufayli o'zi uchun foydali bo'lgan holatlarga intilish va unga zarar keltiradigan vaziyatlardan qochishdir.

3. Dalil vositasi sifatida aqlning ahamiyati. Islom madaniyatida dalil tushunchasi aql va naql (rivoyat, ya'ni payg'ambarimizning amallari haqidagi hikoyalari) birgalikda keladigan eklektik tuzilma mahsuli sifatida talqin qilinadi. Dalilning shakllanishida

yuqoridagi ikki omildan qaysi bir ko'proq e'tiborga olinishi kerakligi masalasi bahsli bo'lsa-da, bu jarayonda ijtimoiy va ilmiy ehtiyojlar diniy ehtiyojlardan ko'ra samaraliroq ekanligi ayon bo'ladi. Shunisi aniqki, islom olamining barcha davrlarida aql va naql o'rtasida doimiy elektik munosabat mavjud bo'lgan [3; 87-b.]. Aql, asosan, ma'lumotning rost, haqiqat yoki yolg'onligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning bu kuchidan to'g'ri foydalanish uchun inson tildan juda yaxshi foydalana olishi va imkon qadar analitik mantiq qoidalariga amal qila olishi kerak. Bu holat nafaqat aqlning mavqeyi, balki naqliy bilimning (rivoyatning) maqbul shaklda yetkazilishi uchun muhimdir. Aytish mumkinki, musulmon madaniyatida aql va naql o'rtasidagi munosabat til orqali o'rnatiladi. Zamaxshariy tildan unumli foydalanishda adabiy san'atni yaxshi bilgan olim sifatida Qur'on oyatlarini bayon ilmi nuqtai nazaridan tahlil qilganligi ko'zga tashlanadi.

Uning fikricha, diniy tilni ifodalashning asosiy shakllaridan biri bo'lgan majoz (metafora, o'xshatish) Qur'onda "tashviq" – rag'batlantirish, undash, tashviqot va "iqoz" – ogohlantirish maqsadida, o'z ta'biri bilan aytganda, isnodiy majoz sifatida qo'llangan. Ammo Qur'onga doir til qoidalariga zid bo'lgan, hamda uning tafsiriga zid bo'lgan turli mazhabiy qarashlar va isroiliy rivoyatlarga murojaat qilish, Zamaxshariy aytganidek, tafsir bid'atiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish uchun aql bunga tayyor bo'lishi kerak. Zamaxshariy aqlni ishlatischning, ya'ni fikrash, o'ylash orqali haqiqatni topish va unga taslim bo'lishning asl ma'nosini Mulk surasining 10-oyati (Mulk, 67/10) tafsiri orqali "Al-Kashshof"da bayon qiladi:

وَقَالُوا لَوْ كُنَّا نَسْمَعُ أَوْ نَعْقِلُ مَا كُنَّا فِي أَصْحَابِ السَّعْيِ

"Yana aytadilarki: "Koshki, **quloq solganimizda** yoki, **aqlimizni ishlatganimizda**, hozir qaynoq (jahannam) ahli orasida bo'lmas edik!" [1; 562-b.].

Zamaxshariy mazkur oyatda quloq solmoq va aqlni ishlatmoq iboralarining birgalikda zikr qilinishini aql va naql dalillariga tayanishga ishora sifatida izohlaydi. Ammo bu iboralarni ba'zi mufassirlar "Agar biz ahli hadis yoki ahli-ray mazhabidan bo'lganimizda edi", shaklida tafsir qilishi bid'at ekanligini asoslab beradi [2; 6/173-b.]. Bu hodisa fanda anaxronizm hodisasi deb yuritilib, tilda mantiqiy va davriy nomutanosibliklarning qo'llanilishini anglatadi. Zamaxshariy anaxronizmga sabab bo'lgan bu kabi tafsirning xato ekanligini qayd etib, ahli hadis yoki ahli-ray mazhablari Qur'on oyatlari nozil bo'lganidan keyin paydo bo'lgan, demak oyatlarda ularning nomi keltirilishi mantiqiy xatolik ekanini isbotlab beradi. Shuningdek, oyatdagi "quloq solganimizda edi" iborasi ham ogohlantirishlarga quloq tutish, inobatga olish ma'nosini anglatadi.

Ko'rinish turibdiki, Zamaxshariyning fikricha, oyatdagi quloq solmoq iborasining qo'llanishi payg'ambarlar orqali nozil qilingan diniy qonun-qoidalarga rioya qilish emas, balki bu uni qabul qilish va iymon keltirish demakdir. Zamaxshariyning keltirishicha, aql odamlarni yomon va xunuk ishlardan qaytarishi kerak. Ammo din amrlaridan o'z manfaati yo'lida foydalanayotganlar, noto'g'ri ekanini bilishlariga qaramay, aqlari yopilganligi uchun qilayotgan ishlaridan voz kechmaydilar. Vaholanki, ular avvalo qo'llariga kitobning, ya'ni Qur'oni Karimning buyrug'iga bo'y sunishlari kerak edi. Ular bu ishni qilishdan o'zlarini tiyganlari uchun aqlarini ishlashmaydi [2; 1/260-261-b.]. Zamaxshariy fikricha, aql

vositasida haqiqatni topish yoki aql va hidoyat o'rtasidagi munosabatni o'rnatuvchi yana bir tushuncha hikmatdir:

يُؤْتِي الْحِكْمَةَ مَنْ يَشَاءُ وَمَنْ يُؤْتَ الْحِكْمَةَ فَقَدْ أُوتَى خَيْرًا كَثِيرًا وَمَا يَذَكَّرُ إِلَّا أُولُو الْأَلْبَابِ

"(Alloh) munosib bo'lganga hikmat beradi. Kimga hikmat berilsa, unga ko'p yaxshilik berilibdi. Faqat **aql-u vijdoni** sof kishilar nasihat oladi" [1; 45-b.]. Baqara surasi 2/269.

Oyat tafsirida Zamaxshariyning fikricha, kimga hikmat berilgan bo'lsa, unga ulug' ne'mat beriladi. Biroq, oyatda aytilganidek, faqat aql-u vijdon egalarigina fikr yurita oladilar va ibrat oladilar, degani bularning faqat ilmi bilan amal qiladigan donishmandlar uchun aytilganiga dalolat qiladi. Oyatda keltirilgan "ulul albab" iborasi aqli bilan qalbi birlashgan, boshqacha aytganda sog'lom aql va sog'lom fikr yuritadigan kishilarga nisbatan ishlatiladi.

4. Aqldan foydalanishning ahamiyati. Zamaxshariy ba'zi fiqhiy masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bayon etar ekan, aqldan foydalanishning ahamiyati haqida ham to'xtalib o'tadi. Ayniqsa, u ahkomlar oyatlari tafsirida gohida nodir qarashlarni kiritadi, gohida esa qarama-qarshi fikrlarni ham qabul qilishi, ba'zida esa o'z hukmlarini chiqarish holatlari kuzatiladi. Aqlning sifatlari va vazifalariga to'xtalar ekanmiz, Allah kishilarni fikr yuritishga chaqirishi, ya'ni, o'zlarini va atrof-muhitni kuzatib ongli ravishda fikr qilishga chaqiradi. Bundan maqsad, odamlarning tabiatni bilishi va aqlini ishga solib, uning ortidagi ijodiy iroda haqida bilimga ega bo'lishidir. Bu holat Qur'on oyatlarida turli yo'llar bilan ifodalangan:

وَتِلْكَ الْأَمْثَالُ نَضْرِبُهَا لِلنَّاسِ وَمَا يَعْفَلُهَا إِلَّا الْعَالَمُونَ {43}

"Bular biz insonlarga keltirayotgan misollardir. U misollarga faqat **bilimli insonlarning aqli yetib tushunadi**" (Ankabut surasi, 29:43) [1; 401-b.].

كِتَابُ أَنْزَلْنَاهُ إِلَيْكُمْ بِارْكٌ لَّيْدَبَرُوا آيَاتِهِ وَلَيَذَكَّرُ أُولُو الْأَلْبَابِ {29}

"Bu muborak kitobdir. Uni senga uning oyatlarini tafakkur qilsinlar va **aql-u vijdoni sof kishilar** nasihat olsinlar deb tushirdik." (Sod surasi, 38:29) [1; 455-b.].

Demak, oyatlarda misol tariqasida keltirilgan tafakkur qilish, Qur'onda yashiringan foydali ma'nolarga erishish demakdir. Shu nuqtai nazardan, o'qigan misralarning faqat zohiriylar tomonlariga e'tibor berib, chuqurroq o'rganmaganlar bu nozikliklardan mahrum bo'ladilar. Zamaxshariy bu holatni tuyasining suti ko'p bo'lsa-da, sog'maydigan odamning ahvoliga o'xshatadi va Hasan Basriyning rivoyatini keltiradi: "Qullar va bolalar Qur'onning tafsirini bilmay, anglamay o'qiydilar, so'zlarini yod oladilar, lekin ma'nosini tushunmaydilar. Johillar qasam ichib: "Qur'oni bir harfini ham qoldirmay o'qidim!" deydilar, biroq, ular uni to'liq o'qimagan bo'ladilar aslida. Chunki Qur'oni to'g'ri o'qigan kishilarning axloqi va xatti-harakatlarida faqat vahiyning ta'siri ko'rindi" [2; 2/262-b.]. Zamaxshariyning fikricha, haqiqatni bilmay, hamma narsaga ergashuvchi taqlidchidan xavfliroq odam yo'q. Insoniyatga berilgan eng ulug' ne'mat aql tufayli ular yaxshi va to'g'ri ishlarga intiladilar, yomon va noto'g'ri narsalardan uzoqlashadilar. Shu tariqa aqli kishilar dunyo va oxiratda o'zlariga zarar yetkazuvchi narsalardan xalos bo'lib, o'zlariga hayot baxsh etuvchi narsalarga e'tibor qaratadilar. Shu nuqtai nazardan, Zamaxshariy odamlarni o'zlarini o'rab turgan koinot, olam haqida fikr yuritishlari, uni tadqiq qilishga, o'rganishga, fikr yuritishga va ibrat olishga da'vat etadi.

Zamaxshariy nafaqat kalomga oid asarlarida, balki boshqa sohalarda, xususan, til va tafsirshunoslikka doir ishlarida ham aqlning o'rniga ahamiyat bergan. Mo'taziliyaga oid qarashlar ham Zamaxshariyning aql haqidagi tushunchalariga ta'sir etmasdan qolmagan. Ma'lumki, mo'tazilada to'g'ri va noto'g'rini farqlay olish, yaxshi va yomonning tafovutini aniqlashda aql belgilovchi omil ekanligi ta'kidlanadi. Ular uchun naqliy bilimlar aqlga zid bo'limgani kabi, ularning talqini ham aqlga zid bo'la olmaydi.

Zamaxshariy o'z devonida ham aql masalasiga to'xtalar ekan, aqlni yagona to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi va hidoyatchi ekanligi, insonni haqiqatdan boshqa hech bir narsa botil yo'lga boshlamasligini ta'kidlaydi. Bu bilan u aql-idrokni hayotning murakkabliklarini boshqarishning asosiy vositasi sifatida ko'radi. Aql oqilona qarorlar qabul qilish uchun fikrlash, muammolarni hal qilish va tushunishda juda muhim ekanligini ko'rsatadi. Mutafakkirning "Nozik iboralar" asarida ham aql-zakovat masalasi keng yoritib beriladi. Jumladan, bir o'rinda "Ahmoq kishi hikmat lazzatini bilmaydi, bamisol tumov kishi gulning hidini sezmagانidek" [4; 51-b.] deb, aqlsiz, aqlga rioya qilmaydigan kishini tumov kishiga majoz vositasida o'xshatadi. Gulning hidini his qilish uchun ma'lum bir jismoniy qobiliyatga zarurat bo'lishi talab qilinganidek, donolikni tushunish ham o'rganish, mulohaza yuritish va fikrlashni talab qiladi. Mulohaza yuritmaydigan yoki aqlidan foydalanmaydigan ahmoq, aqlsiz kishi donolikni qadrlay olmaydi yoki tushuna olmaydi, chunki ular unga erishish uchun zarur bo'lgan jarayonlarda qatnashmaydilar. Donolikka erishish uni izlamaydigan va qadrlamaganlar uchun imkonsizdir. Majoziy shaklda, gulni hidlash oddiy, ammo juda yoqimli hodisa va tajriba bo'lib, diqqat va hozirlikni talab qiladi. Bu hayotning nozik tomonlarini va go'zalligini qadrlash qobiliyatini anglatadi. Atrofdagilar bilan oqilona munosabatda bo'lishga vaqt va e'tibor ajratmaydigan ahmoq odam esa, bu oddiy zavqni qo'ldan boy beradi. Bu hayotning nozik tomonlarini idrok etish va qadrlashning naqadar ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Zamaxshariyning fikricha, sukut saqlash va kamgaplik aqli odamlarning belgisidir: "Aqlli, g'ofil kishining (sukut saqlab) jim turish holati johil, parishon kishining uzridan afzaldir" [4; 55-b.]. Aqlli odam keraksiz gapirishdan ko'ra, ba'zida jim turish yaxshiroq ekanini tushunadi. Bu o'rinda sukunat ma'lum bir donolikni yoki aql-idrokni aks ettiradi. Aqlli odam sukut saqlash orqali o'yamasdan gapirishdan yuzaga keluvchi xatolardan qochadi. Bunday cheklash tushunmovchilik va nizolarning oldini oladi. Nodon odam esa, qayg'uga tushganda yoki xafa bo'lganida, turli chalg'ituvchi bahonalarni keltirishi mumkin. Bunday odam o'ylanmay uzr so'raydi va ko'pincha tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi hamda foydadan ko'ra ko'proq zararga ega bo'lishi mumkin. Bunday bahonalarning ahamiyati yo'q bo'lib, ular nodonning o'zini mas'uliyatdan ozod qilishga yoki bilimi yetishmasligini yashirishga urinish sifatida qaraladi.

Zamaxshariy aqlni ham birinchi darajali, ham ikkinchi darajali maqsadlarga erishishda pillapoya vazifasini o'tashini alohida qayd etadi: "Aql-idrok va shariatga amal qilib ish tutgan banda asl va ikkinchi darajali maqsad-u matlablarini jam qilishi muqarrardir" [4; 65-b.]. Bu o'rinda aql-idrok sog'lom fikr asosida to'g'ri xulosalar chiqarish qobiliyatini anglatadi. Sog'lom fikr bilan harakat qilish ko'pincha muvaffaqiyatlari hayot kechiradi. Bu bilan Zamaxshariy inson sog'lom aql-idrok va shariat asosida harakat qilsa, u tabiiy ravishda amaliy (asosiy) va ma'naviy-axloqiy (ikkilamchi) maqsadlariga erishadi demoqchi.

Xulosa shuki, ratsionalistik qarashlari bilan mashhur bo'lgan Zamaxshariyning ratsionalizm chegarasini tashkil etuvchi qarashlaridagi ta'rif, tasvir va majoz orqali ifodalangan

aqlga oid tamoyillari uning deyarli barcha asarlariga singib ketgan. Zamaxshariyning aql tushunchasiga bo'lgan munosabatidagi asosiy masalalar ongning tabiatи va funksional vazifalari hamda aqlning haqiqatni topishda dalil sifatidagi ahamiyati va o'rni haqidagi qarashlarida aks etadi. Aql insonga berilgan eng ulug' ne'mat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlar mavjud bo'lgan olamni va uning ortidagi ijodkorni anglashdan iborat. Alloma insonga berilgan aql-zakovat tufayli inson doimo haqiqat bilimiga erisha olishini ta'kidlaydi. Insonlarning faqat takabburlik va shuhratparastlikdan uzoqlashgandagina haqiqatni qabul qila olishiga urg'u beradi. Uning fikricha, aql bilish vositasidir. Darhaqiqat, insonga biror narsani farz qiladigan Alloh taolodir. Ya'ni, Alloh taolo aql orqali insonga bir vazifa yuklaydi. Binobarin, aql bog'lovchi kuch emas, balki sababchi vosita va insoniyatning haqiqatni bilishi uchun berilgan Alloh taoloning bebaho ne'matidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржимаси ва тафсири. Анфол сураси 8. 22-оят. Тошкент: Sano-standart, 2019. – 25, 45, 75, 179, 401, 455, 459, 562, 6.
2. Zemahşerî, el-Keşşâf, 1/260, 261, 2/262, 5/185, 293, 6/173, 61/353, 674, 675
3. Harun Çağlayan, "Akıl-Nakıl İlişkisi: Rey ve Hadis Ehlinin Yaklaşımları", Sistematischer Kelam, ed. Mehmet Evkuran (Ankara: Bilay Yayınları, 2019), 87.
4. Уватов У. Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замаҳшарий. Нозик иборалар. –Т.: Камалак, 1992. – 51, 55, 65 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali**
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro’yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).